



MIFOLOGIYADA KLIMATOLOGIK ELEMENTLARNING BADIY-ARXETIPIK XUSUSIYATLARI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

v.b dotsenti

Nuraliyeva Ozoda Narbayevna

Annotatsiya: Insoniyatning ibtidoiy dunyoqarashida tabiat hodisalarini anglashga qaratilgan mifologik tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tafakkur shaklida tabiat hodisalari oddiy fizik jarayon sifatida emas, balki kosmik tartib, ilohiy kuch va arxetipik ramzlar sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, klimatologik elementlar – shamol, yomg‘ir, qor, momaqaldiroq, chaqmoq, quyosh nuri kabi fenomenlar mifologik tizimda muhim semantik va poetik funksiyani bajargan. Mazkur maqolada mifologiyada aynan mana shu elementlarning tahlili bayon qilinib, munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: mif, mifologiya, obraz, obrazlilik, tabiat hodisasi, klematologiya.

Har bir tilda u yoki bu meteorologik hodisaning ifodalanishi turlicha bo‘lishi mumkin, ya’ni ayrim tillarga xos bo‘lgan ma’no salohiyatiga ega konnotativ xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan rus mifologiyasiga razm tashlansa, uning iqlimiga xos bo‘lgan sovuqlik tushunchasi mifologiyada mustahkam o‘rin egallaganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Rus mifologiyasida iqlimiy o‘zgarishlar xalq hayotidagi og‘ir tabiiy sharoitga moshlashuvi, bu tabiat hodisalari borasidagi qarashlarni o‘zida ifoda etadi. Unda keskin sovuq yoki iliqlik bilan bog‘liq, qirg‘oqchilik bilan bog‘liq obrazlar aks etadi. Masalan, sovuqlik bilan bog‘liq arxetip obraz sifatida Ayozbobo obraziga murojaat etish mumkin. Shu bilan birgalikda kalendar marosimlari bilan bog‘liq voqeliklar ham o‘rin egallaganki, unda tabiat kuchlari bilan kurash tasviri o‘rin egallagan. Bunda sovuq ko‘pincha yovuz kuchlar bilan, iliqlik esa hayotning qayta tiklanishi bilan bog‘lanadi. Rus mifologiyasida tabiat kuchlarini jonlantirish – personifikatsiyalash natijasida ob-havo anomalariyalari oliy kuchning irodasi sifatida qabul qilinadi. Uzoq davom etgan qishlar (Perun, Veles) xudolari bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda savuq va ayoz obrazlari ham borki u yuqorida ta’kid etganimizdek Ayozbobo (Morozko) sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari eng qisqa kunni ifodalovchi Karachun folklori obrazi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Kalendar mifologiyasi bilan bog‘liq Maslenitsa, Kolyada kabi marosimlar fasllar



almashinuviga yordam berishga qaratilgandir. Bu esa iqlim o'zgarishiga moslashuvni ham keltirib chiqaradi. Demak, rus mifologiyasida ham iqlimiy o'zgarishlar bilan bog'liq arxetip obrazlar uchraydiki, ular real iqlimiy o'zgarishlarni anglashga yordam beradi.

O'zbek mifologiyasiga nazar tashlansa, unda ham klimatologik elementlarni o'zida ifoda etgan arxetip obrazlarga duch kelish mumkin. Folklorshunos B.Sarimsoqov turkiy mifologiyani o'rganar ekan, asosiy e'tiborini "Shirin qiz" mifologiyasiga qaratadi. Bu afsona "kosmogonik mif bilan bog'liq holat yuzaga kelgan. Qadimda oy va sayyoralarning osmondagi muallaq holati ajablanarli ko'ringan. Ularning doimiy harakati, yoritish xususiyati g'alati, notabiiy ko'ringan. Binobarin, oy kult darajasiga ko'tarilgan. Mazkur afsonada u individ bilan assosatsiyalashtirilgan va go'zallikning timsoliga aylangan. Ko'rinadiki, afsona xabar funksiyasini ado etadi. Bosh qahramon Shirin go'zallik va odamiylik timsoli, yuksak fazilatli ayollarning tipik namunasi yang'lig' namoyon bo'ladi"¹³. Demak, o'zbek mifologiyasida kosmogonik hodisaga katta e'tibor qaratilgan. Koinot bilan bog'liq hodisalarni anglashga intilish kuzatiladi.

"O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar"da arxaik miflar xususida so'z yuritilib, uning asosiy belgisi ularda kaos bilan kosmos o'rtasidagi kurash keng miqyoda aks etadi degan xulosani beradi: "ko'proq animistik, totemistik tasavvurlar bu kurashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Arxaik miflarning yana bir muhim belgisi shundan iboratki, ularda na poleteistik, na moneteistik diniy qarashlarning unsuri uchraydi. Bunday miflarning mohiyati hammavaqt umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Klassik miflarda esa kaos bilan kosmos kurashining miqyosi biroz toraygan holda aks etib, ularning subyekti demiurglardan iborat bo'ladi... Klassik miflarning yana bir muhim belgisi kosmos bag'rida ustun mavqega erishishga intiluvchi kaos bilan kurash mifning asosiy semantikasini tashkil etishida namoyon bo'ladi... O'rta Osiyo xalqlaridagi otashparastlik – zardushtiylik ham o'zining mifologik asosiy bilan klassik mifologiyaga mansubdir"¹⁴. Darhaqiqat, klimatologik mifologiya bilan bog'liq voqelik kosmogonik xususiyatga ega bo'lib, unda tabiat hodisalariga bo'lgan munosabat kuzatiladi.

O'zbek folklorida "Sust xotin" marosimi mavjud bo'lib, bu marosim yomg'ir chaqirish marosimi sanalgan. U mifologiya bilan bog'liq bo'lib, yomg'ir tangrisi sust xotinga iltijo qilish orqali amalga oshirilgan. Marosim jarayonida esa "Susut xotin" qo'shig'i ishtirokchilar tomonidan kuylangan. "Sust xotin" – "Avesto"da madh etilgan osmon suvlari tangrisi Tishtriyaning

¹³ Sarimsoqov B. O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1989. – B. 8.

¹⁴ Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 146.



xalq orasida fonetik o'zgarishlarga uchrab, Tishtriy, Tushtir, Sustr va nihoyat Sist xotin shaklini olgan namunasi, deya izohlaydi B.Sarimsoqov"¹⁵.

“O'zbek folklori” darsligida: “o'zbek folklorida saqlanib qolgan miflarning asosiy qismi qadimgi turkiy mifologiyaning epik deffuziyasi natijasida yetib kelgan. Qadimgi turkiy qabilalar og'zaki ijodiyotida olamni mifologik anglash asosida yaratilgan kosmogonik, totemistik, animistik, etiologik va etnogenetik miflar asosiy o'rinni egallagan. U o'zbeklar orasida “Sust xotin”, “Sut xotin”, “Suv xotin”, “Chala xotun” nomlari bilan tarqalgan bo'lsa, turkmanlarda “syuyt xato'n”, tojiklarda “sust momo” yoki “Ashaglen” deb yuritiladi”¹⁶.

O'zbek xalq og'zaki ijodi va qadimiy mifologik tasavvurlarida yomg'ir va tuman kabi gidrometeorik hodisalar ham uchraydiki, uni shunchaki iqlimiy o'zgarish emas, balki koinotdagi energetik muvozanat va ilohiy irodaning moddiylashgan shakli sifatida talqin etish mumkin bo'ladi. Aslida yomg'ir – kosmik nikoh va regeneratsiya arxetipi sifatida talqin etiladi. O'zbek mifologiyasida yomg'ir “Osmon” (Ota-erkaklik asosi) va “Yer” (Ona-ayollik asosi, yunon mifologiyasi singari) o'rtasidagi ierogamiya (muqaddas nikoh) vositachisidir. O'zbek mifologiyasi va folklorida bu obraz marosim bilan bog'liq holda zuhur topgan. Sust xotin marosimi deya e'tirof etiladi. Unga ko'ra bu marosim yomg'ir chaqirishning qadimiy rituallashgan shakli bo'lib, unda gidrometeorik jarayon to'g'ridan-to'g'ri antropomorfik (inson qiyofasidagi) personajga bog'lanadi. Yomg'ir – hayot baxsh etuvchi ilohiy substansiya (ekstrakontekstual energiya) sifatida ko'riladi. Shu bilan bir qatorda unda samoviy sut simbolikasi ham mavjudki, bu simbolika mifik qarashlarda yomg'ir bulutlarning “suti” sifatida talqin qilinib, tabiatning laktatsiya (emizish, oziqlantirish) jarayonini ifodalaydi. Bu esa badiiy matnlarda “rizq”, “baraka” va “poklanish” metaforalarining arxetipik asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi holat va tushunchalarni “Avesto” asarida ham uchratish mumkin.

Umuman olganda, totemik-mifologik bosqichda asosiy belgi sifatida iqlim – xudoning o'zi deya e'tirof etiladi. Mifopoetik bosqichda esa iqlim – ramz va metafora sifatida talqin etiladi. Ekometeorologik bosqichga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda iqlim – ekologik inqiroz va global xavotir ifodasi sifatida e'tirof etiladi. Demak, mifologik tafakkurda shakllangan klimatologik arxetiplar bugungi kunda qahramonning dunyoni anglash usuli bo'lib xizmat qilmoqda. Iqlimiy elementlarning badiiy-arxetipik talqini orqali inson va tabiat o'rtasidagi simbiotik aloqani, insoniyatning tabiatdan uzilib qolishi natijasida

¹⁵ Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2010. – B. 130.

¹⁶ Mirzayev T.va bosh. O'zbek folklori. – Toshkent: Malik Print Co, 2021. – B. 33.



yuzaga kelgan ekopsixologik jarohatlar ifoda etilgan. Zamonaviy poetik tafakkurda mifologik elementlar demifologizatsiya (mifdan xolilanish) jarayonini boshdan kechirsa-da, ularning arxetipik asosi saqlanib qoladi. Fikrimiz isboti sifatida ayoz va qor arxetipiga murojaat etamiz. Unga ko‘ra mifologiyada “Qish” ko‘pincha vaqtinchalik o‘lim yoki anabioz holati bilan bog‘lanadi. She‘riyatda esa bu element ontologik yolg‘izlik va inson ruhiyatining kriogen (muzlagan) holati sifatida isomorfik talqin qilinadi. Shamollarning yo‘nalishi sifatida arxetipik obrazlarga murojaat etadigan bo‘lsak, u mifologik tafakkurda shimol shamoli (sovuq, o‘lim) va janub shamoli (iliqlik, hayot) o‘rtasidagi kurash lirik matnda qahramonning ichki dioxotomiyasi (ikki qarama-qarshi holat) sifatida namoyon bo‘ladi. Gidrometeorik obrazlar jahon mifologiyasida kosmogonik (dunyoning yaralishi) ahamiyatga ega. Yomg‘ir – tartib va hayot, tuman esa – tartibsizlik (xaos) va sirlilik belgisi sifatida badiiy konseptualizatsiya qilinadi. Psixoanalitik va mifologik tadqiqotlarda arxetip tushunchasi muhim nazariy kategoriya hisoblanadi. Arxetiplar insoniyatning kollektiv ongida shakllangan universal obrazlar tizimini ifodalaydi. Klimatologik elementlar ham ana shunday tabiiy arxetiplar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan: quyosh – hayot, nur, kosmik tartib; yomg‘ir – baraka va yangilanish; shamol – ruh, harakat, o‘zgarish; qor – poklanish va sukunat; bo‘ron – xaos va kosmik kurash sifatida talqin qilinadi. Bu arxetiplar ko‘pincha mifopoetik kod sifatida ishlaydi. Ya‘ni ular orqali mifologik matn yoki folklor asarlarida chuqur semantik qatlam shakllanadi. Demak, kosmogonik miflarda klimatologik obrazlar, klimatologik elementlar olam yaralishi jarayonining faol komponenti sifatida talqin qilinadi. Ko‘plab miflarda shamol kosmik harakatni boshlovchi kuch, suv va yomg‘ir hayot manbai, chaqmoq esa kosmik energiya ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan, turkiy mifologiyada shamol va bo‘ron ko‘pincha osmon ruhlari faoliyati bilan bog‘lanadi. Yomg‘ir esa yerning unumdorligi va hayot siklining davomiyligini ta‘minlovchi ilohiy ne‘mat sifatida talqin qilinadi. Bunday tasavvurlar naturfilosofik qarashlar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, tabiat hodisalarini kosmik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi. Klimatologik elementlarning badiiy funksiyasi ham mavjudki, unga ko‘ra mifologik tafakkur asosida shakllangan klimatologik obrazlar keyinchalik badiiy adabiyotda ham keng qo‘llanadi. Bu jarayon mifopoetik transformatsiya deb ataladi. Adabiy matnda klimatologik elementlar emotsional atmosfera yaratish, qahramon ruhiy holatini ifodalash, ramziy va arxetipik ma‘no hosil qilish, kosmik va tabiat uyg‘unligini ko‘rsatish funksiyalarni bajaradi. Masalan, bo‘ron yoki momaqaldiroq ko‘pincha dramatik vaziyatni kuchaytiradi. Yomg‘ir esa yangilanish yoki ruhiy poklanish ramzi sifatida ishlatiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev T.va bosh. O‘zbek folklori. – Toshkent: Malik Print Co, 2021. – B. 33.
2. Sarimsoqov B. O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1989. – B. 8.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Musiq” nashriyoti, 2010. – B. 130.
4. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 146.